

МЕХНАТ MIGRATSIYASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHDAGI MUAMMOLAR

Gulmatova Nilufar Vyacheslavna

Xorazm viloyati yuridik texnikumi

“Yuridik xizmat” yo’nalishi 1-bosqich o’quvchisi

[Tel:+998991910818](tel:+998991910818)

Annotatsiya: ushbu maqolada migrantlarining huquq va manfaatlari himoya qilinishini to‘laqonli ta‘minlash bo‘yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlardagi normalarni takomillashtirish, Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yanada takomillashtirish, uning tashkiliy shakllarini tubdan kengaytirish, O‘zbekistonlik migrantlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, O‘zbekistonlik mehnat muhojirlarining huquqiy holati va Xalqaro munosabatlar haqida tushuncha berilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: mehnat migratsiyasi, O‘zbekistonlik mehnat muhojirlar, mehnat migratsiyasini tartibga solish, tabiiy ofatlar va texnogen vaziyatlar, huquq va qonuniy manfaatlar, bandlikni ta‘minlash, Harakatlar strategiyasi, fuqarolarini xorijda ishga joylashtirish

Bugungi kunda Xalqaro iqtisodiy aloqalarida mehnat migratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyo miqyosida ishchi kuchining norasmiy migratsiyasi ko‘payib bormoqda. Bunday ishchilar ijtimoiy, huquqiy jihatdan himoyalalmagan bo‘lib, aksariyat hollarda yuqori malakali mutaxassislarning oddiy ishchi sifatida ishlashlari va ayrim hollarda mahalliy ishchilarga nisbatan bir necha barobar past oylik maoshi olishlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Bugungi kunda davlatlar o‘rtasida mehnat migratsiyasini tartibga solishda normativ-huquqiy hujjatlarning yetarli emasligi, mazkur masalani huquqiy tartibga solishdagi muammolar, fuqarolar bilan ishlash, mehnat migrantlarini qo‘llab-quvvatlash borasida ayrim xususiy bandlik agentliklari tomonidan ishlar yetarli darajada tashkil etilmayotganligi kuzatilmoqda. Shu bilan birga davlatlar o‘rtasida va Xalqaro tashkilotlar tomonidan mehnat migrantlarining huquq va manfaatlari himoya qilinishini to‘laqonli ta‘minlash bo‘yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlardagi normalarni takomillashtirish talab qilinadi. Bundan tashqari, ko‘pchilik mamlakatlarning xususiy bandlik agentliklari tomonidan xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarini ochish borasidagi ishlari ham yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida fuqarolar hayoti va sog‘lig‘ini hamda boshqa tavakkalchiliklarni sug‘urtalash bo‘yicha kamchiliklar ham huquqiy tartibga solinishi lozim. Shuningdek, xususiy bandlik agentliklari o‘z

faoliyatini qonun doirasida amalga oshirayotganligini nazorat qilib borish va ularga metodik yordamlar ko'rsatish borasidagi ishlar ham talab darajasida emas. Migrantlarni kasbga tayyorlash, moslashtirish tadbirlarini va xorijda ishga joylashtirish jarayonlarini to'g'ri tashkil qilinishini nazorat qilish hamda har bir davlat o'z fuqarolarini xorijda ishga joylashtirish masalalari bo'yicha xorijiy davlatlar bilan imzolangan hamkorlik to'g'risidagi shartnomalar, bitimlar, bayonnomalar va boshqa hujjatlardan kelib chiqadigan tegishli qarorlar va majburiyatlarning bajarilishini yetarli darajada tartibga solinmagan.

O'zbekiston Respublikasida ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama asosda xalqaro-huquqiy hujjatlarni qabul qilish orqali tashqi mehnat migratsiyasi sohasini tartibga solish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmogda. O'zbekiston fuqarolarining mehnat faoliyatlari davomida ularning mehnat huquqlarining kafolatlari qanday bo'ladi yoki ularning mehnat munosabatlari qaysi normalar asosida va qanday prinsiplar asosida tartibga solinishi albatta muhimdir. Shu sababli O'zbekistondagi migratsiya jarayonlarini boshqarish muammolari, shakllari va usullari, mehnatkash-migrantlar huquqlarini himoya qilishning milliy va xalqaro-huquqiy asoslari, tabiiy ofatlar va texnogen vaziyatlar sharoitida migrantlarni himoya qilish va ularga ko'maklashish, xorijda mehnat qilayotgan va O'zbekistonlik migrantlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda NNTlarning roli kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etib bormogda.

Bundan tashqari, tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun fuqarolarni tashkillashtirilgan tarzda yig'ish yuzasidan xalqaro shartnomalar tuzish, ularning respublika tashqarisida ish joylariga xavfsiz tarzda yetib borishini ta'minlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, noqonuniy mehnat migratsiyasining katta oqimi haligacha saqlanib qolmogda.

Fuqarolarni xorijda tashkillashtirilgan tarzda ishga joylashtirish, shuningdek, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarning bandligini ta'minlash ko'rsatkichlari past darajada qolishi davom etmogda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish, tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yanada takomillashtirish, uning tashkiliy shakllarini tubdan kengaytirish, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublika tashqarisiga ketayotgan fuqarolarning mehnat va ijtimoiy huquqlari himoya qilinishini ta'minlash, xorijdan qaytib kelgan mehnat migrantlarini tadbirkorlik va mehnat faoliyatiga jalb etishni kengaytirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [Harakatlar strategiyasida](#) belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.07.2018-yildagi PQ-3839-son "O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada

takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzurida Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi tashkil etildi. Mazkur jamg'armaga xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida zo'ravonlik, majburiy mehnat va kamsitishdan jabrlangan, mehnat va boshqa huquqlari buzilgan, og'ir moliyaviy ahvolga tushgan va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarsiz, tirikchilik uchun mablag'siz qolgan fuqarolarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, shuningdek, ularga moddiy yordam ko'rsatish va boshqa bir qator vazifalar yuklatildi.

Biroq, shunga qaramay, O'zbekistonda mehnat migratsiyasini tartibga soluvchi alohida qonun hujjati mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan "Tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi Qonun loyihasi ishlab chiqilgan, lekin hali qabul qilingani yo'q. Ushbu Qonun loyihasi 6 bob, 48 ta moddadan iborat bo'lib, tashqi mehnat faoliyatida uchraydigan muammolarni yechimini o'z ichiga olgan. Bundan tashqari, O'zbekistonlik mehnat muhojirlarining huquqiy holati va ularning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davrlarini va pensiya belgilash, moliyalashtirish, ijtimoiy himoya bilan bog'liq bo'lgan tibbiy xizmat ko'rsatish, ma'muriy va jinoiy tartibda ta'qib qilish, migrantlarning oila a'zolarini himoya qilish bilan bog'liq muammolarning huquqiy asosi belgilanishi kutilmoqda.

Mehnat migratsiyasi sohasidagi qonunchilikning takomillashtirilishi, fuqarolarning manfaatiga, mehnat huquqlarining ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi – lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635- sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi"
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.07.2018-yildagi PQ-3839-son "O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.